
№2 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№2 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

DINIY KONTENTNING RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti psixologiya mutaxassisligi
I bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada raqamli axborot muhitida tarqalayotgan diniy mazmundagi axborotlarning shaxs ongiga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari hamda ularning axborot xavfsizligi bilan bog'liq jihatlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Zamonaviy kommunikatsiya platformalarida diniy kontentning faollashuvi shaxsning axborotni qabul qilish jarayonlari, emotsional munosabatlari va ijtimoiy qarashlarining shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir etmoqda.

Tadqiqot doirasida axborot xavfsizligi shaxs psixikasini himoyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Diniy axborotlarning ongga ta'sir etish mexanizmlari kognitiv jarayonlar, emotsional ta'sirlanish va ijtimoiy identifikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsning psixologik barqarorligi va tanqidiy tafakkuri raqamli axborot muhitida axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim shartlari sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: raqamli axborot muhiti, diniy axborotlar, ongga ta'sir, axborot xavfsizligi, kognitiv jarayonlar, psixologik barqarorlik, ijtimoiy identifikatsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности воздействия религиозной информации, распространяемой в цифровой информационной среде, на сознание личности и связанные с этим аспекты информационной безопасности. Активизация религиозного контента в современных коммуникационных пространствах оказывает заметное влияние на процессы восприятия информации, эмоциональные реакции и формирование социальных установок личности.

Информационная безопасность интерпретируется как социально-психологическое явление, направленное на сохранение психологической устойчивости личности в условиях интенсивного информационного воздействия. Анализируются основные механизмы влияния религиозных сообщений на сознание личности с позиций когнитивных и эмоциональных процессов, а также социальной идентификации. Обосновывается значение психологической устойчивости и критического мышления как ключевых условий противодействия информационным угрозам в цифровой среде.

Ключевые слова: цифровая информационная среда, религиозная информация, воздействие на сознание, информационная безопасность, когнитивные процессы, психологическая устойчивость, социальная идентификация.

Abstract. The article examines the specific features of the influence of religious information disseminated in the digital information environment on individual consciousness, as well as its implications for information security. The increased presence of religious content on modern communication platforms significantly affects information perception, emotional responses, and the formation of social attitudes.

Information security is interpreted as a socio-psychological phenomenon closely related to the protection of psychological stability in the context of intensive information exposure. The study analyzes the mechanisms of religious content influence from the perspectives of cognitive and emotional processes and social identification. Psychological resilience and critical thinking are substantiated as essential conditions for ensuring information security in the digital environment.

Keywords: digital information environment, religious information, influence on consciousness, information security, cognitive processes, psychological resilience, social identification.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli axborot makonining kengayib borishi shaxs ongiga ko‘rsatilayotgan turli axboriy ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, diniy mazmundagi axborotlarning internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va messenjerlar orqali tezkor tarqalishi axborot xavfsizligini nafaqat texnik yoki huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday sharoitda shaxsning axborotni qabul qilish, talqin etish va unga nisbatan munosabat bildirish jarayonlari uning psixologik barqarorligi hamda ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda axborot xavfsizligi masalalari asosan axborot tizimlarini himoyalash, mafkuraviy barqarorlik va ekstremizmning oldini olish doirasida o‘rganilgan. Shu bilan birga, diniy axborotlarning shaxs ongiga ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlari, ularning kognitiv, emotsional va motivatsion sohalarga ta’siri masalalari yetarlicha tizimli yoritilmagan. Bu holat mazkur muammoni psixologik yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - raqamli axborot makonida diniy kontentning shaxs ongiga ijtimoiy-psixologik ta’sir xususiyatlarini tahlil qilish hamda axborot xavfsizligini ta’minlashda psixologik omillarning ahamiyatini ilmiy jihatdan

asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan psixologik yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida shakllangan raqamli axborot makoni shaxs ongiga ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatishning muhim omiliga aylanib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan axborot oqimlari shaxsning bilish jarayonlari, emotsional holati, e’tiqodiy qarashlari hamda ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat raqamli axborot makonini shaxs psixologiyasi nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli axborot makoni ijtimoiy fanlarda tarmoqlangan kommunikatsiya muhiti sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Manuel Castells tomonidan ishlab chiqilgan “tarmoq jamiyati” konsepsiyasida axborot texnologiyalari jamiyat tuzilmasi va shaxs ijtimoiy tajribasini tubdan o‘zgartiruvchi omil sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, axborot oqimlarining tezkorligi va uzluksizligi shaxs ongida fragmentar tafakkur, selektiv idrok va tezkor emotsional reaksiyalarning kuchayishiga olib keladi. Natijada axborotning mazmunidan ko‘ra uning taqdim etilish shakli va psixologik ta’sir kuchi ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaydi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Raqamli axborot makonining muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan biri uning vaqt va makon bilan cheklanmaganligidir. Shaxs istalgan vaqtda, istalgan joyda axborotga duch kelishi mumkin. Ushbu holat doimiy axborot bosimini shakllantiradi. Bunday sharoitda kognitiv yuklama ortib, axborotni tanqidiy tahlil qilish mexanizmlari susayishi mumkin. Ayniqsa, diniy mazmundagi kontent emotsional va e’tiqodiy jihatdan sezgir mavzularni qamrab olgani sababli shaxs ongiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitning interaktiv xarakteri ham uning psixologik ta’sirini kuchaytiruvchi omillardan biridir. “Layk”, “izoh”, “ulashish” kabi ijtimoiy baholash mexanizmlari shaxsning axborotga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mexanizmlar ijtimoiy konformizm, guruhga moslashish va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlarini faollashtiradi. Natijada shaxs ayrim axborotlarni obyektiv baholashdan ko‘ra, guruh tomonidan ma’qullangan pozitsiyani qabul qilishga moyil bo‘lib qoladi. Bu holat diniy kontent tarqalishida “ijtimoiy haqiqat” illuziyasining yuzaga kelishiga xizmat qilishi mumkin.

Media psixologiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, raqamli axborot makonida axborotning ta’sir kuchi ko‘pincha uning vizual va texnologik shakllari bilan belgilanadi. Bu borada Marshall Maklyuenning “vosita - bu xabar” degan konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu g‘oyaga ko‘ra, axborotning

mazmunidan ko‘ra uni uzatuvchi vositaning o‘zi shaxs ongiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli diniy kontentda audio-vizual effektlar, qisqa va emotsional murojaatlar, ramziy obrazlardan keng foydalanilishi aynan ushbu psixologik mexanizm bilan izohlanadi.

Shu tariqa, raqamli axborot makoni shaxs ongiga ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatishning murakkab va ko‘p qatlamli tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tezkorligi, interaktivligi, emotsional to‘yinganligi hamda ijtimoiy baholash mexanizmlariga tayanganligi diniy kontentning keng tarqalishi va shaxs ongiga chuqur singib borishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa raqamli muhitda diniy axborot bilan bog‘liq xavf-xatarlarni axborot xavfsizligining muhim ijtimoiy-psixologik muammosi sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Raqamli axborot makonida tarqalayotgan diniy kontent shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatish darajasi va mazmuniy yo‘nalishiga ko‘ra alohida ilmiy tahlilni talab etuvchi ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Diniy kontent deganda muayyan diniy g‘oyalar, e’tiqodiy qarashlar, axloqiy me’yorlar va ramziy tasavvurlarni ifodalovchi matnli, audio, video va vizual axborotlar majmui tushuniladi. Raqamli muhitda ushbu kontent an’anaviy diniy kommunikatsiyadan farqli ravishda tezkorlik, ommaviylik va interaktivlik xususiyatlariga ega bo‘lib, shaxs ongiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy psixologiya va din sotsiologiyasida diniy kontent avvalo shaxsning ma’naviy ehtiyojlari va identifikatsion izlanishlari bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Peter L. Berger dinni ijtimoiy reallikni ma’nolash va legitimlashtirish vositasi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, diniy kontent shaxs ongida mavjud bo‘lgan noaniqlik, xavotir va ma’naviy bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Raqamli muhitda esa bu jarayon yanada soddalashtirilgan va ommaviy shakl kasb etib, turli auditoriyalarga tezda moslashtiriladi.

Mazmuniga ko‘ra, raqamli diniy kontentni bir necha asosiy turlarga ajratish mumkin. Birinchidan, ma’rifiy-axloqiy kontent bo‘lib, u diniy qadriyatlar, axloqiy normalar va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalarini targ‘ib etishga yo‘naltiriladi. Ikkinchidan, e’tiqodiy-missionerlik kontenti bo‘lib, u shaxsni muayyan diniy qarashlarni qabul qilishga undaydi. Uchinchidan, manipulyativ va radikal yo‘nalishdagi diniy kontent mavjud bo‘lib, u shaxsning emotsional zaifliklari va ijtimoiy norozilik holatlaridan foydalanish orqali ongga bosim o‘tkazishga qaratiladi. Aynan ushbu turdagi kontent axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan eng katta psixologik xavf manbayi hisoblanadi.

Media psixologiyada axborotning shakliy jihatlari uning mazmunidan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Bu borada Sherry Turkle raqamli kommunikatsiya shaxsning identifikatsiya va o‘zini anglash jarayonlariga chuqur

ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. Raqamli diniy kontentda qisqa video murojaatlar, emotsional ohang, ramziy obrazlar va vizual metaforalardan foydalanish shaxs ongida tezkor va tanqidiy tahlildan holi bo‘lgan idrokni shakllantiradi.

Shuningdek, algoritmik tavsiyalar va filtr pufakchalari (filter bubble) diniy kontent tarqalishining muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Raqamli platformalar foydalanuvchining avvalgi qiziqishlari va xatti-harakatlariga mos axborotni taklif qilgani sababli, shaxs bir xil mazmundagi diniy axborot doirasida qolib ketishi mumkin. Bu holat dunyoqarashning torayishi, alternativ fikrlarni inkor etish va e’tiqodiy qarashlarning mutlaqlashuviga olib keladi.

Shu tariqa, raqamli axborot makonida diniy kontent mazmuniy jihatdan rang-barang va ta’sir mexanizmlari jihatidan murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u shaxs ongiga turli psixologik yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Diniy kontentning ma’rifiy shakllari ijobiy ijtimoiy-psixologik funksiyani bajarsa, manipulyativ va radikal yo‘nalishdagi shakllari shaxsning psixologik barqarorligiga hamda axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Aynan shu holat diniy kontentni raqamli muhit sharoitida ijtimoiy-psixologik tahlil qilishni dolzarb ilmiy masalaga aylantiradi.

Zamonaviy axborot makonida diniy mazmundagi axborotning shaxs ongiga yetib borishi murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu jarayon an’anaviy kommunikatsiyadan farqli ravishda bevosita muloqotga emas, balki texnologik vositalar, algoritmik boshqaruv va psixologik ta’sir omillarining uyg‘unlashuviga tayanadi. Natijada shaxs axborotni ongli tanlov asosida emas, ko‘pincha bilvosita va avtomatik tarzda qabul qiladi.

Ijtimoiy-kognitiv psixologiyada axborot ta’sirining muhim mexanizmlaridan biri modellash va ijtimoiy o‘rganish jarayoni hisoblanadi. Bu borada Albert Bandura shaxs xulq-atvori va qarashlari ko‘pincha kuzatuv va taqlid orqali shakllanishini asoslab bergan. Raqamli diniy kontentda “namunaviy shaxslar”, diniy yetakchilar yoki bloggerlar obrazining yaratilishi aynan shu mexanizmga tayanadi. Shaxs bunday obrazlarni kuzatar ekan, ularning qarashlari va xatti-harakatlarini ongli ravishda tahlil qilmasdan qabul qilishga moyil bo‘ladi.

Onlayn diniy axborotning ongga yetib borishida emotsional ta’sir alohida o‘rin tutadi. Media psixologiyada emotsional jihatdan kuchli axborot kognitiv filtrlardan tezroq o‘tishi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu holat Daniel Kahneman tomonidan ishlab chiqilgan tezkor va intuitiv fikrlash tizimi bilan izohlanadi (Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. - New York, 2011). Tezkor fikrlash tizimi sharoitida shaxs axborotni chuqur tahlil qilmasdan, emotsional signal sifatida qabul qiladi. Diniy kontentda qo‘rquv, najot, umid yoki aybdorlik kabi kuchli hissiyotlarga murojaat qilinishi aynan ushbu mexanizmni faollashtiradi.

Bundan tashqari, raqamli diniy axborot ko‘pincha soddalashtirilgan va fragmentar shaklda taqdim etiladi. Murakkab diniy tushunchalarning qisqa shiorlar, video lavhalar yoki ramziy obrazlar orqali berilishi shaxs ongida yuzaki, ammo mustahkam e’tiqodiy tasavvurlarni shakllantiradi. Bunday sharoitda diniy mazmun ilmiy yoki tanqidiy tahlildan holi holda qabul qilinib, shaxs ongida qat’iy va moslashuvchan bo‘lmagan qarashlar paydo bo‘lishi mumkin.

Shu tariqa, onlayn diniy axborotning shaxs ongiga yetib borishi ijtimoiy o‘rganish, emotsional ta’sir, takroriylik, ijtimoiy tasdiqlash va algoritmik yo‘naltirish kabi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlarning uyg‘unlashuvi diniy kontentning ta’sir kuchini sezilarli darajada oshirib, uni axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Diniy kontentning shaxs ongiga ta’siri, avvalo, kognitiv jarayonlar - idrok, e’tiqod va tafakkur tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlar shaxsning axborotni qabul qilish, mazmunini talqin etish va unga nisbatan munosabat shakllantirish mexanizmlarini belgilaydi. Raqamli muhitning tezkorligi va axborotga boyligi sharoitida diniy kontent kognitiv tizimga kuchli yuklama beradi hamda ongli tahlildan ko‘ra intuitiv qabul qilishni faollashtiradi.

Kognitiv psixologiyada idrok jarayoni axborotni tanlab qabul qilish xususiyatiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Shaxs mavjud kognitiv sxemalariga mos keladigan axborotni tezroq va osonroq qabul qiladi. Bu holat Jan Piaje tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv sxemalar va assimilyatsiya tushunchalari bilan izohlanadi. Raqamli diniy kontent shaxsning avvaldan mavjud bo‘lgan e’tiqodiy qarashlariga mos tarzda taqdim etilganda, u tanqidiy filtrlardan oson o‘tib, ongda mustahkamlanadi. Natijada shaxs muqobil nuqtayi nazarlarni inkor etishga moyil bo‘lib qoladi.

Diniy kontentning e’tiqod shakllanishiga ta’siri kognitiv dissonans mexanizmi orqali ham izohlanadi. Agar shaxs ongida mavjud qarashlar bilan yangi axborot o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelsa, u ichki psixologik noqulaylikni kamaytirish maqsadida axborotni qayta talqin qiladi yoki rad etadi. Ushbu jarayon Leon Festingerning kognitiv dissonans nazariyasida asoslab berilgan. Raqamli diniy kontent ko‘pincha shaxsning mavjud e’tiqodlarini mustahkamlovchi tarzda tuzilgani sababli dissonans emas, balki e’tiqodiy qat’iylikni kuchaytiradi.

Shuningdek, raqamli diniy kontent tafakkurda sabab-oqibat munosabatlarini qisqartirilgan va mutlaq shaklda talqin qilishga olib kelishi mumkin. Murakkab ijtimoiy hodisalar diniy sabablar bilan izohlanib, muqobil ilmiy yoki ijtimoiy tushuntirishlar e’tibordan chetda qoladi. Bu holat tafakkurning dualistik (oq–qora) shakllanishiga olib kelib, murosasiz qarashlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli axborot makonida diniy kontent shaxsning kognitiv jarayonlariga chuqur ta’sir ko‘rsatib, idrokning selektivligi, e’tiqodning qat’iylashuvi va tafakkurning soddalashuvi kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonlar uyg‘unlashgan holda shaxs ongida barqaror, biroq tanqidiy tahlildan holi bo‘lgan diniy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Bu esa diniy kontentni axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan ijtimoiy-psixologik muammo sifatida baholash zaruratini kuchaytiradi.

Diniy kontentning shaxs ongiga ta’siri nafaqat kognitiv, balki emotsional va affektiv jarayonlar orqali ham amalga oshadi. Emotsiyalar axborotni tezkor qabul qilish, unga subyektiv baho berish va xulq-atvoriy javoblarni shakllantirishda muhim regulyator bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli muhitda diniy mazmundagi axborot ko‘pincha kuchli hissiy komponentlarga tayangan holda taqdim etilgani sababli, shaxsning ongli nazorati susayib, affektiv reaktivlik kuchayadi.

Affektiv psixologiyada emotsional qo‘zg‘alish darajasi axborotning ta’sir kuchini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon Pol Ekman tomonidan asoslangan bazaviy emotsiyalar nazariyasi bilan izohlanadi. Diniy kontentning emotsional ta’siri ko‘pincha affektiv yuqtirish (emotional contagion) mexanizmi orqali kuchayadi. Ijtimoiy psixologiyada emotsiyalarning guruh a’zolari o‘rtasida tez tarqalishi ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lib, bu holat onlayn muhitda yanada kuchli namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda diniy mazmundagi videolar, jamoaviy duolar yoki hissiy murojaatlar ko‘p marotaba takrorlanib namoyish etilishi shaxsda umumiy hissiy holatga qo‘shilish ehtiyojini shakllantiradi.

Emotsional ta’sirning yana bir muhim jihati diniy kontent orqali affektiv bog‘lanishning yuzaga kelishidir. Shaxs muayyan diniy g‘oya, yetakchi yoki onlayn hamjamiyat bilan emotsional aloqaga kirishar ekan, ushbu bog‘lanish asta-sekin identifikatsion xarakter kasb etadi. Bu holat Anri Tashfel tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi bilan izohlanadi. Emotsional yaqinlik kuchaygan sari shaxs guruh qadriyatlarini shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilishga moyil bo‘ladi.

Raqamli diniy kontentning affektiv ta’siri ko‘pincha qo‘rquv va xavotir hissiyotlarini faollashtirish orqali amalga oshadi. Oxirat jazosi, gunoh, ma’naviy tanazzul yoki ijtimoiy adolatsizlik mavzularining dramatik talqini shaxsda affektiv zo‘riqishni kuchaytiradi. Affektiv holatning yuqori darajasi esa tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini cheklab, shaxsni tayyor emotsional javoblarga yo‘naltiradi. Bu holat diniy kontentning manipulyativ potensialini oshiradi.

Shuningdek, raqamli muhitda diniy kontent pozitiv affektiv holatlarni ham shakllantirishi mumkin. Umid, ruhiy taskin, ma’naviy tayanch kabi hissiyotlar shaxsning psixologik holatini barqarorlashtiruvchi funksiyani bajaradi. Biroq ushbu

pozitiv affektiv holatlar ham nazoratsiz va mutlaq xarakter kasb etsa, shaxsning real muammolarni tanqidiy baholash qobiliyatini susaytirishi ehtimoli mavjud.

Axborot xavfsizligining psixologik mohiyati, avvalo, shaxsning axborotga bo‘lgan ishonchi va selektiv qabul qilish mexanizmlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy psixologiyada axborotga nisbatan ishonch ko‘pincha manba obro‘si va emotsional ta’sir darajasiga bog‘liq holda shakllanishi ta’kidlanadi. Bu holat Karl Hovland tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ ta’sir modeli bilan izohlanadi. Raqamli diniy kontentda ushbu mexanizm diniy yetakchilar yoki “avtoritet” shaxslar orqali faol qo‘llaniladi.

Axborot xavfsizligining psixologik jihatlaridan yana biri shaxsning kognitiv va emotsional zaiflik darajasi bilan bog‘liq. Stress, xavotir, identiklik inqirozi yoki ijtimoiy noaniqlik sharoitida shaxs axborotga nisbatan kamroq tanqidiy munosabatda bo‘ladi. Ushbu holat Abraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida ta’kidlangan xavfsizlik va tegishlilik ehtiyojlari bilan uyg‘unlashadi. Raqamli diniy kontent aynan shu ehtiyojlarga murojaat qilgan holda shaxs ongida psixologik bog‘lanishni shakllantiradi.

Shuningdek, axborot xavfsizligi shaxsning psixologik barqarorligi bilan ham bevosita bog‘liq. Barqaror shaxs axborot ta’siriga nisbatan moslashuvchan va reflektiv munosabat bildirsa, psixologik beqarorlik sharoitida axborot tahdidlari ongga tezroq singib boradi. Ushbu jihat Aaron Bek tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv buzilishlar tushunchasi bilan izohlanadi. Agar shaxsda noto‘g‘ri kognitiv sxemalar shakllangan bo‘lsa, u axborotni real baholashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Raqamli diniy axborot sharoitida axborot xavfsizligining psixologik jihatlari yanada murakkablashadi. Diniy mazmundagi axborot shaxsning e’tiqodiy, emotsional va identifikatsion qatlamlariga bevosita ta’sir qilgani sababli, uni tanqidiy baholash qiyinlashadi. Natijada axborot xavfsizligi muammosi shaxs ongining ichki himoya tizimlari bilan bevosita bog‘liq ijtimoiy-psixologik masalaga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy mediamakonda diniy radikalizm va ekstremistik kontent shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatish darajasi yuqori bo‘lgan, axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan eng xavfli hodisalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kontent diniy g‘oyalarni mutlaq, murosasiz va dualistik talqinda taqdim etish orqali shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy jarayonlariga chuqur singib boradi. Natijada diniy radikalizm psixologik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammo sifatida shakllanadi.

Radikalizatsiya jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanadigan psixologik hodisa sifatida izohlanadi. Bu borada Fatali Moxaddam tomonidan ishlab chiqilgan “radikalizatsiya zinapoyasi” modeli muhim ahamiyatga ega. Ushbu modelga ko‘ra, shaxs ijtimoiy adolatsizlik, kamsitilish yoki ma’naviy bo‘shliqni boshdan kechirgan sharoitda asta-sekin radikal g‘oyalarga yaqinlashadi. Raqamli diniy kontent ushbu jarayonni tezlashtirib, shaxsni bosqichma-bosqich ekstremistik qarashlarga olib kirishi mumkin.

Diniy ekstremistik kontentning psixologik xavfi uning ma’no va ahamiyat berish ehtiyojiga murojaat qilishi bilan ham izohlanadi. Nazariyaga ko‘ra, shaxs o‘z hayotida ma’no va ijtimoiy ahamiyatni yo‘qotganida, radikal diniy g‘oyalar unga “yuksak maqsad” va “tanlanganlik” hissini beradi. Raqamli ekstremistik kontent ushbu ehtiyojni faol rag‘batlantirib, shaxsni keskin va murosasiz pozitsiyaga yo‘naltiradi.

Ekstremistik diniy kontentning yana bir xavfli jihati shaxs ongida axloqiy cheklovlarning susayishi bilan bog‘liq. Bu holat Albert Bandura tomonidan asoslangan axloqiy chekinish mexanizmi orqali izohlanadi. Ekstremistik kontent zo‘ravonlikni “muqaddas vazifa”, “ilohiy buyruq” yoki “adolatli kurash” sifatida talqin qilib, shaxsda zo‘ravon xatti-harakatlarga nisbatan ichki psixologik to‘siqlarni zaiflashtiradi.

Ekstremistik diniy kontentning ta’siri uning yopiq axborot muhitlari orqali tarqalishi bilan ham kuchayadi. Yopiq guruhlar, shifrlangan kanallar va algoritmik filtrlash shaxsni muqobil axborot manbalaridan uzib qo‘yadi. Bu holat dunyoqarashning torayishi va radikal e’tiqodlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Psixologik jihatdan bunday muhitda shaxs tanqidiy fikrlash imkoniyatini deyarli yo‘qotadi.

Radikal diniy kontent, ayniqsa, yoshlar va identiklik izlanish davrida bo‘lgan shaxslar uchun yuqori xavf tug‘diradi. Ijtimoiy maqom, ma’naviy tayanch va guruhga mansublik ehtiyojlari qondirilmagan sharoitda ekstremistik g‘oyalar psixologik kompensatsiya vazifasini bajaradi. Bu holat radikalizmni individual muammo emas, balki ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida ko‘rib chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Radikalizm va ekstremistik kontent shaxs ongiga bosqichma-bosqich ta’sir ko‘rsatib, kognitiv qat’iylik, emotsional keskinlik va axloqiy cheklovlarning susayishiga olib keladi. Raqamli axborot makonida ushbu kontentning keng tarqalishi axborot xavfsizligini nafaqat texnologik, balki chuqur psixologik va ijtimoiy muammo sifatida tahlil qilishni taqozo etadi.

Diniy mazmundagi soxta axborotlar (dezinformatsiya) shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatishning eng murakkab va yashirin shakllaridan biri hisoblanadi.

Dezinformatsiya diniy g‘oyalar va ramzlardan foydalanib, axborotni ataylab buzib talqin qilish, kontekstdan uzib berish yoki yolg‘on faktlar bilan uyg‘unlashtirish orqali shaxsni chalg‘itishga yo‘naltiriladi. Ushbu jarayon axborot xavfsizligiga tahdid solish bilan birga, shaxs psixologik barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soxta diniy axborotning psixologik ta’siri uning haqiqatga o‘xshashlik darajasi bilan ham bog‘liq. Agar axborot diniy terminlar, iqtiboslar yoki tarixiy voqealar bilan bezatilgan bo‘lsa, shaxs uni tanqidiy tekshirmasdan qabul qilishga moyil bo‘ladi. Ushbu holat Elizabet Loftus tomonidan asoslangan yolg‘on xotiralar va noto‘g‘ri axborot effekti bilan izohlanadi. Natijada shaxs ongida soxta axborot real bilim sifatida mustahkamlanib qolishi mumkin.

Diniy dezinformatsiyaning keng tarqalishiga ijtimoiy tasdiqlash mexanizmlari ham xizmat qiladi. Soxta diniy axborot shaxs psixologiyasiga xavotir, ishonchsizlik va kognitiv chalkashlik holatlarini keltirib chiqaradi. Qarama-qarshi diniy talqinlar va noto‘g‘ri ma’lumotlarning ko‘pligi shaxs ongida barqaror bilim tizimini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi. Bu holat shaxsni keskin qarorlarga, mutlaq xulosalarga yoki axborotdan butunlay voz kechishga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, diniy dezinformatsiya shaxsning axloqiy va ijtimoiy baholash mezonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Soxta axborot orqali ayrim guruhlar “yovuz”, “dushman” yoki “adashgan” sifatida talqin qilinib, stereotiplar va ijtimoiy murosasizlik kuchaytiriladi. Bu holat jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga zamin yaratadi.

Raqamli axborot makonida soxta diniy axborot shaxs ongiga kognitiv xatolar, ijtimoiy tasdiqlash va emotsional ta’sir mexanizmlari orqali chuqur singib boradi. Diniy dezinformatsiya shaxsning real bilimlarini buzib, psixologik barqarorligiga va axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Shu sababli soxta diniy axborotni aniqlash va unga qarshi psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

XULOSA

Axborot olish va tarqatishning jadal rivojlanishi shaxs ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirib, diniy kontentning tarqalishi va qabul qilinish jarayonlarini yangi ijtimoiy-psixologik bosqichga olib chiqdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhitda diniy axborot shaxs ongiga nafaqat bilish jarayonlari orqali, balki emotsional, affektiv va ijtimoiy identifikatsion mexanizmlar orqali ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa diniy kontentni oddiy axborot hodisasi emas, balki shaxs psixologiyasiga tizimli ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida ko‘rib chiqish zaruratini asoslaydi.

Tahlil qilinganidek, raqamli diniy kontent shaxsning idroki va tafakkurida selektivlikni kuchaytirib, mavjud e'tiqodiy qarashlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qisqa, soddalashtirilgan va emotsional jihatdan boy axborotlar tanqidiy fikrlash mexanizmlarini cheklab, diniy g'oyalarni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish ehtimolini oshiradi. Natijada shaxs ongida moslashuvchan bo'lmagan, qat'iy va ba'zan murosasiz e'tiqodiy tasavvurlar shakllanishi mumkin.

Diniy kontentning emotsional va affektiv ta'siri shaxsda qo'rquv, aybdorlik, umid yoki ma'naviy taskin kabi kuchli hissiy holatlarni yuzaga keltirib, ongli nazoratni susaytiradi. Ushbu affektiv jarayonlar ijtimoiy identifikatsiya va guruhga mansublik hissi bilan uyg'unlashgan holda shaxsni muayyan onlayn diniy hamjamiyatlarga yaqinlashtiradi. Guruhiy identifikatsiyaning kuchayishi esa shaxsni konformizmga, muqobil qarashlarni inkor etishga va "biz-ular" tipidagi dualistik dunyoqarashni qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Axborot xavfsizligining psixologik jihatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli diniy kontent bilan bog'liq xavf-xatarlar faqat texnologik himoya choralarini kuchaytirish bilan bartaraf etilmaydi. Ayniqsa, diniy radikalizm, ekstremistik kontent va soxta diniy axborot shaxs ongiga bosqichma-bosqich singib borib, kognitiv qat'iylik, emotsional keskinlik va axloqiy cheklovlarning susayishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli axborot makonida diniy kontent shaxs ongiga ko'p qatlamli ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatib, axborot xavfsizligini shaxs psixologiyasi bilan uzviy bog'liq muammo sifatida namoyon etadi. Shu sababli diniy axborot bilan bog'liq xavf-xatarlarni bartaraf etishda texnik va huquqiy choralar bilan bir qatorda, psixologik yondashuvlarni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda axborot savodxonligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bandura A. Moral Disengagement: How People Do Harm and Live with Themselves. - Stanford: Stanford University Press, 2016.
2. Beck A. T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. - New York: International Universities Press, 1976.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. - Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
4. Ekman P. Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. - New York: Times Books, 2003.
5. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. - Stanford: Stanford University Press, 1957.

6. Hovland C. I., Janis I. L., Kelley H. H. Communication and Persuasion. - New Haven: Yale University Press, 1953.
7. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. - New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
8. Loftus E. F. Eyewitness Testimony. - Cambridge: Harvard University Press, 1996.
9. Maslow A. H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954.
10. Moghaddam F. M. From the Terrorists' Point of View: What They Experience and Why They Come to Destroy. - Westport: Praeger, 2005.
11. Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge & Kegan Paul, 1950.
12. Tajfel H. Human Groups and Social Categories. - Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
13. Turkle S. Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. - New York: Simon & Schuster, 1995.
14. Kruglanski A. W., Bélanger J. J., Gunaratna R. The Psychology of Radicalization and Deradicalization. - Washington: American Psychological Association, 2014.

YOSHLAR HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISH – HUQUQIY NIGILIZMGA QARSHI KURASHNING USTUVOR OMILI Turdiyev Bexruz Sobirovich	6
TA'LIM JARAYONIDA AKADEMIK STRESS VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich	**12**
ZAMONAVIY YOSHLARDA O'ZIGA BAHONI ADEKVATLASHTIRISH ORQALI STRESSGA BARQARORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna., Ismoilova Moxinur Kamilovna	**17**
АЛГОРИТМ ПРОВЕДЕНИЯ НАРРАТИВНО-ЭКСПОЗИЦИОННОЙ ТЕРАПИИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕТЕЙ, ПЕРЕЖИВШИХ ТРАВМАТИЧЕСКИЙ ОПЫТ В УСЛОВИЯХ ТЕРРОРИСТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ Юлдашев Санжар Рузимуродович	**25**
OLIMPIYA TERMA JAMOASI SPORTCHILARINI MUSOBAQAOLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	**38**
IJTIMOIY TARMOQLARDA YOLG'ON AXBOROTLARGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA NAMOYON BO'LISH MEXANIZMLARI Nurmatov A.N	**46**
O'SMIR SUZUVCHILARDAGI ICHKI NIZOLAR VA ULARNING SPORT FAOLIYATIGI TA'SIRI Mavlanov Donyor Ergash o'g'li	**54**
YOSHLARNI NIKOH YOSHI HAQIDAGI ADEKVAT TASAVVURLARI OTA-ONA OILASIDAGI MA'NAVIY MUHITNING BARQARORLIGIGA MOSLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI Abdullayeva Aropatxon Rustamovna	**61**

BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDAGI KOGNITIV, HISSIY-MOTIVATSION VA PEDAGOGIK OMILLAR Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**67**
DINIY KONTENTNING RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA SHAXS ONGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI Soliyev Otabek Davlatjon o'g'li	**73**
MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABALARGA O'QUV MATERIALLARINI MUSTAQIL O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	**85**
ONALIK FENOMENI: FANLARARO TALQIN VA OILAVIY-PEDAGOGIK MAZMUNI Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna	**91**
PRAGMALINGUISTIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK PRINT AND ONLINE NEWS TEXTS Istamova Dilnoza Sadulloyevna	**100**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA RUHIY SALOMATLIKNI SAQLASHDA QONUNLARNING O'RNI VA TA'SIRI Bahodirova Marhaboxon Toxirjon qizi	**106**

LIDERLIK – ILMIY TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA

(Mavzu bosh harflarda, Times New Roman 14 shriftda, 12 ta so‘zdan oshmagan holda)

Abdullayev Abdulla Abdullayevich
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, psixologiya fanlari doktori

(Muallif F.I.Sh., ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvoni Times New Roman 14 shriftda to‘liq yozilishi kerak)

Annotatsiya: Maqolaga annotatsiya o‘zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi lozim. Annotatsiya maqolaning qisqacha mazmunini yoritib berishi, unda tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi, metodologiyasi, asosiy natijalari hamda ilmiy-amaliy ahamiyati qisqacha aks ettirilishi talab etiladi. Annotatsiya hajmi 100-150 ta so‘zdan oshmagan, bir butun matn shaklida yozilishi, unda iqtiboslar, jadvallar, formulalar va adabiyotlarga havolalar keltirilmasligi kerak.

Kalit so‘zlar: kamida 10-15 ta so‘zdan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi.

Аннотация: Аннотация к статье должна быть представлена на узбекском, русском и английском языках. Аннотация должна кратко отражать содержание статьи, включая актуальность исследования, цель, методологию, основные результаты и научно-практическую значимость исследования. Объём аннотации не должен превышать 100-150 слов. Текст аннотации оформляется в виде единого текста без использования цитат, таблиц, формул и ссылок на литературу.

Ключевые слова: рекомендуется указывать не менее 10-15 слов.

Abstract: The abstract of the article should be presented in Uzbek, Russian, and English languages. The abstract must briefly reflect the content of the article, including the relevance of the research, its purpose, methodology, main results, and scientific-practical significance. The abstract should not exceed 100-150 words and must be written as a single coherent text without quotations, tables, formulas, or references.

Keywords: it is recommended to provide at least 10-15 keywords.

KIRISH

Maqolaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot obyekti va predmeti, qo‘llanilgan metodlar hamda maqolaning ilmiy yangiligi qisqacha bayon etilishi tavsiya etiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Mazkur bo‘limda tadqiqot mavzusi bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, mavjud nazariy yondashuvlar hamda ilmiy qarashlar tahlil qilinishi lozim. Tadqiqot davomida foydalanilgan adabiyotlar matn mazmuniga mos ravishda [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy metodlar, tahlil usullari, ma’lumotlar manbalari, tadqiqot obyekti va predmeti hamda metodologik yondashuvlar

yoritilishi zarur. Ushbu bo‘lim tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ko‘rsatib berishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda tadqiqot jarayonida olingan natijalar ilmiy asosda tahlil qilinishi, ularning mazmun-mohiyati ochib berilishi hamda muammo yechimiga oid ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar, jadvallar, diagrammalar va boshqa tahliliy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. Olingan natijalar mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy аҳамияти asoslab berilishi zarur. Ushbu bo‘limda keltirilgan fikr va ma’lumotlarga tegishli adabiyotlar [1], [2], [3] ko‘rinishida havola tarzida berilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

Mazkur bo‘limda tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu yuzasidan asosiy ilmiy xulosalar bayon etilishi lozim. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar keltirilishi tavsiya etiladi. Xulosa qismida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, uning istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun ahamiyati ham qisqacha yoritilishi zarur. Mazkur bo‘lim aniq, qisqa va mantiqiy yakunlangan shaklda bayon etilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Mazkur bo‘limda maqola tayyorlash jarayonida foydalanilgan ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari hamda internet manbalari tartib asosida keltirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 ta manbaadan kam bo‘lmagan manba ko‘rinishida taqdim etishi shart. Bibliografik tavsif APA 7th Edition yoki Harvard uslubida rasmiylashtiriladi.

NASHR ETIKASI VA AKADEMIK HALOLLIK

Jurnal faoliyatida xalqaro nashriyot etikasi tamoyillari, jumladan COPE (Committee on Publication Ethics) tavsiyalariga amal qilinadi. Mualliflar tadqiqot natijalarining haqqoniyligi, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda mualliflik huquqlariga rioya etilishi uchun mas’uldirlar.

Plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, mualliflikni noto‘g‘ri ko‘rsatish, bir tadqiqotni takroran nashr etish va boshqa akademik qoidabuzarlik holatlari maqolani rad etish uchun asos hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilgan hollarda ularning qo‘llanilishi maqolaning metodologik qismida ochiq ko‘rsatilishi lozim.

TAQRIZLASH VA NASHR ETISH TARTIBI

Jurnalga kelib tushgan barcha maqolalar dastlabki texnik ekspertizadan o‘tkaziladi hamda ilmiy talablarga mos kelgan maqolalar ikki tomonlama anonim taqrizlash (Double Blind Peer Review) jarayoniga yuboriladi. Taqrizchilar xulosasi asosida maqola qabul qilinishi, qayta ishlash uchun muallifga yuborilishi yoki rad etilishi mumkin.

NAMUNA

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF–6079-son Farmon. https://lex.uz
2. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (5th ed.). Sage Publications.

3. Abdullaev, A. A. (2024). Digital transformation in higher education. In Proceedings of the International Conference on Educational Innovation (pp. 145–152). Atlantis Press.
4. Hwang, G. J., Xie, H., Wah, B. W., & Gašević, D. (2020). Vision, challenges, roles and research issues of artificial intelligence in education. Computers and Education: Artificial Intelligence, 1, Article 100001. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2020.100001
5. Ashurov, R. R. (2026). O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari. Maktabgacha va maktab ta’limi, 4(2). https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/4847
6. UNESCO. https://www.unesco.org

(Maqola matni to‘liq Times New Roman 14 shriftda 1,15 intervalda tayyorlanishi kerak)

Maqola qo‘lyozmasini quyidagi manzillarga yuborishingiz mumkin:
Telegram manzil: https://t.me/fanlararotadqiqotlar yoki @sarhad_5

Rasmiy telegram kanali: https://t.me/fanlararoilmiytadqiqotlar

Jurnal sayti: https://fanlararotadqiqotlar.uz/

☑ **Biz bilan ilmiy hamkorligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.**
JURNAL TAHRIRIYATI
https://t.me/fanlararotadqiqotlar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/